



BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHILARIGA TABIIY FANLARNI O'QITISHDA KREATIVLIKNI RIVOJLANTIRISH

Xoliyeva S.R.

*Termiz davlat pedagogika instituti
4-bosqich talabasi*

Tayanch soʻzlar: kreativlik, tabiiy fan, qobiliyat, individ, intellekt, tabiat, tasavvur, metod.

Ключевые слова: творчество, естественное знание, способности, личность, интеллект, природа, воображение, метод.

Key words: creativity, natural science, ability, individual, intellect, nature, imagination, method.

Hozirgi zamonda yana bir katta oʻzgarish. XX asr oʻrtalarigacha insonlar ishga kirish uchun asosiy hujjat sifatida oʻz diplomlarini taqdim etishar edi. Diplomni esa haqiqiy oʻqigan talaba olardi. Ha, hozir ham koʻp ish beruvchilar diplom talab qiladi, ammo bu asosiysi va eng muhimi emas, muhimi sizda **“creativity”** hamda **“critical thinking”** kabi qobiliyatlar ham boʻlishi kerak. Hattoki juda koʻplab xorijiy hamda professional bilim talab qilmaydigan kompaniyalar, xodimlarni ishga yollash uchun **“aptitude test”** nomli tushuncha oʻylab topishdi. **Bu xodimning kreativligi va qiyin vaziyatlardan qanday chiqishini tekshiradigan test koʻrinishiga keldi.**

Zamonaviy dunyoning innovatsiyalariga moslashish, doimiy yangilanuvchi jamiyat hayotiga yosh avlodni tayyorlash va uni zamon talablariga muvofiq takomillashtirish jarayonlarida faol ishtirok etish qobiliyatini rivojlantirish oliy taʼlim muassasasi pedagogining muhim kasbiy vazifasi hisoblanadi. Kreativlik taʼlim jarayonini tashkillashtirishni oʻzida mujassamlashtirib, kreativ taʼlim jarayonini qurish, taʼlim texnologiyalaridan ijodiy salohiyatni rivojlantirish, turli uslublar, bilim va koʻnikmalar muvozanatini rivojlantirishni oʻz ichiga oladi. Kreativlikning mohiyati - intellekt insonning aqliy salohiyati boʻlsa, kreativlik ana shu aqliy salohiyatni maqsadga yoʻnaltirilgan tarzda erkin ishlata olish qobiliyati hisoblanadi. Kreativlik atamasi Angliya-Amerika psixologiyasida 60-yillarda paydo boʻldi. U individning yangi tushuncha yaratishi va yangi koʻnikmalar hosil



qilish qobiliyati, xislatini bildiradi. J. Gilford kreativlikni tavsiflaydigan qator individual qobiliyatlarni ko'rsatadi:

- fikrni maqsadga muvofiq yo'llay olish;
- o'ziga xoslik (originallik);
- qiziquvchanlik;
- farazlar yaratish qobiliyati;
- xayol qila olish (fantaziya).

Mamlakatimizda inson, uning har tomonlama kamol topishi va farovonligi, manfaatlarini ro'yobga chiqarish sharoitlarini yaratish, ta'lim sifati va samaradorligini yangi bosqichga olib chiqish borasidagi izchil islohotlar natijasida interfaol o'qitish metodlari asosida talabalarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirishni keng tatbiq etish imkoniyatlari yaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida "Uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, yosh avlodning ijodiy va intellektual salohiyatini qo'llab-quvvatlash va ro'yobga chiqarish" kabi ustuvor vazifalar belgilanib berilgan. Shunga muvofiq interfaol o'qitish metodlari asosida talabalarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shaxsda kreativlik sifatlarini rivojlantirish jarayonining umumiy mohiyatini to'laqonli anglash uchun dastlab "kreativlik" tushunchasining ma'noni tushunib olish talab etiladi.

"Kreativlik" tushunchasini quyidagicha sharhlash mumkin: Kreativlik (lot., ing. "create" – yaratish, "creative" – yaratuvchi, ijodkor) – individning yangi g'oyalarni ishlab chiqarishga tayyorlikni tavsiflovchi va mustaqil omil sifatida iqtidorlilikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyati.

Tabiiy fan maktab o'quvchilariga butun borliq to'g'risida umumiy tushunchalarni beruvchi fan bo'lib, boshlang'ich sinf o'quvchilariga ushbu fanni o'qitishda zamonaviy ta'lim texnologiyalari asosida va samarali o'qitish metodlaridan foydalanib kreativlik asosida dars berish muhim sanaladi.

Tabiiy fanlarni o'qitishning asosiy maqsadi, o'quvchilarni tabiatni kuzatishga o'rgatish, ularda mehnat ko'nikmalari va tabiatga ongli munosabatni shakllantirishdan iborat. Ana shu muhim talablarni bajarish, avvalo tabiat haqidagi tasavvur va tushunchalarni olishdadir.

O'quvchilarda u yoki bu tushunchani shakllantirishda narsalar to'g'risida aniq tasavvurlar hosil qilish, o'rganilayotgan materialni atrof-muhit bilan bog'lash, hissiy idrok muhim ahamiyatga ega, ya'ni tabiiy fanlarni o'rganish jarayonida olgan bilimlar asosida real borliq bilan ongli ravishda munosabat o'rnatishlari lozim.

Tabiiy fanlarni o'qitishda tasavvur muhim ahamiyat kasb etadi. Tasavvur sezgi organlar faoliyatining, xotiraning yoki tasavvur qilishning mahsulidir. Tasavvur tushunchalarning sezgili asosi hisoblanadi, biroq tasavvurlar bilan tushunchalar



o`rtasida keskin chegara yo`q. 1-, 2- sinflarda o`quvchilar tabiiy fanlarni o`qitishda ularga tajribalar o`tkazish, kuzatishlar, ekskursiyalar orqali o`quvchilarda tasavvurlar paydo bo`ladi. 2-sinf tabiiy fanlar darsligidagi “Rang-barang olam” mavzusida keltirilgan tajriba bunga misol bo`ladi.

Tajribaning maqsadi: oq rangning yettita rangga bo`linishiga ishonch hosil qilish.

1. Bir parcha shaffof mato oling. Singlingiz sochiga taqadigan shaffof tasma ham bo`laveradi.

2. O`qituvchingizdan shamni yoqib, stol ustiga qo`yishini so`rang.

3. Matoni ko`zingizga qo`yib, shaffof mato orqali shamning oloviga qarang.

4. Sham olovining atrofida qanday ranglar paydo bo`ldi?

5. Xulosa chiqaring.

Xulosa o`rnida aytish mumkinki, insonlar bir xillikdan zerikdi. Endi faqatgina kreativ o`ylagan insongina hammadan ajralib tura oladi. Chunki “creativity” bu cheklash mumkin bo`lgan tushuncha emas. Inson ongining cheki yo`q ekan, kreativlik ham cheksizdir.

Adabiyotlar:

1. G.Husanova. Tabiatshunoslik o`qitish metodikasi fanidan ma`ruza matni. Namangan. 2010.
2. M.I. Nuriddinova. Tabiatshunoslik o`qitish metodikasi. Toshkent 2005.
3. Belskaya Y.M., Grigoryans A.G. Tabiatshunoslikni o`qitish. —T., 2000.
4. Grigoryans A. G., Malkina L.G. Atrof tabiat bilan tanishtirish. -T., 1990.
5. Yo`Idoshev J. Pedagogik innovatsiyalami hayotga tatbiq etishninu tashkiliy asoslari. J. «Xalq ta`limi», 1999.
6. Nuriddinova M.I. Tabiatshunoslikni o`qitish metodikasi: tarixi; va nazariy asoslari. Samarqand, 2003.
7. Shonazaova Sevara Rashidovna Pedagogical foundations of formation of geographical concepts in elementary school students Web of scientist: international scientific pesearch journal. ISSN: 2776-0979, Volume 4, Issue 3, Mar., 2023
8. Sevara Shonazaova Rashidovna Historical foundations of improving geographical concepts in primary school students Emergent: Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning (EJEDL) VOLUME 3 , ISSUE12, DECEMBER- 2022 ISSN: 2776-0995
9. O.E.Tigay Tabiiy fanlar 2-sinf II qism darslik Toshkent 2023

PEZIOME

Ushbu maqolada boshlang`ich sinf o`quvchilarini tabiiy fanlarni o`qitishda kreativlikni rivojlantirish haqida fikr mulohazalar keltirilgan. Shu bilan birga boshlang`ich sinf o`quvchilariga tabiiy fanlarni o`qitishning ahamiyati haqida ham so`z yuritilgan.

PEZIOME

В данной статье представлены идеи о развитии творческих способностей при обучении естественнознанию учащихся младших классов. В то же время обсуждалась и важность преподавания естественных наук ученикам начальной школы.

SUMMARY

This article presents ideas about the development of creativity in teaching natural sciences to elementary school students. At the same time, the importance of teaching natural sciences to elementary school students was also discussed.